

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

PAREMALAR – LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA

Sumbul Muxammedova
NDPI tayanch doktoranti

Doniyor Yuldashev
UrDU f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada paremiologik birliklar va ularning o‘rganilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan. Maqollar va matallarning munosabati masalasida tilshunoslarning ilmiy-nazariy qarashlari, farqlovchi va o‘xshash tomonlari, maqol-matal tipidagi paremalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: paremiologiya, parema, maqol, matal, frazeologizm, oraliq uchunchi.

Annotation. This article presents information on paremiological units and their study. The scientific-theoretical views of linguists on the issue of the relationship between proverbs and proverbs, their differences and similarities, proverb-type parmes are discussed.

Key words: paremiology, parema, proverb, matal, phraseologism, intermediate third.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о паремиологических единицах и их изучении. Обсуждаются научно-теоретические взгляды лингвистов на вопрос о соотношении пословиц и пословиц, их различиях и сходствах, пословицеобразных пармах.

Ключевые слова: паремиология, парема, пословица, матал, фразеологизм, промежуточная треть.

Kirish

O‘zbek tilining noyob leksik-grammatik vositalari, xususan, xalq jonli tiliga mansub eng sara birliklarning jilolarini o‘zida saqlab kelayotgan manba bu – xalq og‘zaki ijodi hisoblanadi. Ma’lumki, folklor manbalari turli-tuman janrlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Jumladan, rivoyat, ertak, doston, asotir, maqol, matal, topishmoq, tez aytish, cho‘pchak, askiya, laparlar, xalq qo‘sishlari, hikmatli so‘zlar va iboralar xalq donoligining noyob unsurlarini, so‘z qo‘llashga mohir kishilarning xizmatlari bilan asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan noyob manbadir. Bularning ichida maqol, matal, ibora va xalqona aforizmlar alohida ajralib turadi va ular lingvistikada paremalar deb ham ataladi.

Paremalar – hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan, ixcham obrazli, hikmatli ibora yoki tugal ma’noli gapdir. Paremalarada xalqning donoligi, millatning ruhi, uning madaniyati aks etadi. Biz paremalarni o‘rganish orqali ajdodlarimizning butun bir hayotiy faoliyati, ularning orzu-o‘ylari, turmush tarzi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz va ulardan kerakli xulosalarni chiqarishimiz mumkin.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Paremalar turg‘un ifodalardir, ular tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Ulardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biror so‘zni qo‘sib yoki o‘rniga boshqa bir so‘zni qo‘llash shakl va mazmun mutanosibligiga putur yetkazadi. Bugungi kunda paremiologiya atamasi 2 xil ma’noda qo‘llaniladi: 1) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga ko‘chib yuruvchi, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, metal, aforizmlar va iboralarni o‘rganuvchi fan; 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, hikmatli iboralar – paremalar tizimi.

Paremiologiya qadimdan olimlarda qiziqish uyg‘otib kelgan. Aristotel maqol va matallarni (paremiyani) birinchi bo‘lib tasnif qilgan va sistemalashtirgan. Turkiy xalqlarga xos paremalarni to‘plash, o‘rganish Mahmud Koshg‘ariy (“Devonu lug‘otit-turk”)dan hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda.

Paremalar xalq og‘zaki ijodi materiali sifatida adabiyotshunoslik sohasining ham o‘rganish obyekti hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur birlklarning janr xususiyatlari, ularning kompozitsion jihatlari, ularda qo‘llangan metafora, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi tasviriy vositalarning tadqiqi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq har qanday fikr ifodalashga xizmat qiladigan birlik so‘zlar va gaplardan tuziladi, aynan ana shu jihatning o‘ziyoq paremalar tilshunoslik sohasining ham o‘rganish obyekti bo‘la olishini dalillash uchun yetarli.

Muhokama va natijalar

Paremalarga faqat xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida emas, balki lingvistik tahlil muammosi sifatida qiziqish XX asrning 70-yillaridan boshlandi. G.L.Permyakov tilning paremiologik darajasini aniqlab, maqol va matallar paremiologik iboralarning asosiy qismini tashkil etishini ta’kidlab o‘tgan [11:26]. Paremiya – bu ona tilida so‘zlashuvchilarga ma’lum bo‘lgan og‘zaki shakl bo‘lib, u hayot haqiqatlarini o‘rganish jarayonida millat yoki insoniyat tomonidan to‘plangan chuqur bilimlarni ixcham va metaforik shaklida ifodalaydigan birlikdir. Paremalarni lingvokulturologik aspektida tadqiq qilish, paremiologik birliklar chegarasini belgilash borasida rus tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Paremiologiyani o‘rganish jahon tilshunosligida N.F.Alefireenko, V.P.Anikin, G.L.Permyakov, L.B.Savenkova, E.I.Seliverstova kabi ko‘plab zamonaviy tilshunoslar tomonidan olib borildi. Paremiologiya muammolari ingliz va amerikalik olimlar A.Teylor, A.Dandes, B.J.Hiting, V.Mieder tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularning diqqat markazida turli tillar paremiologiyasini taqqoslash, qiyosiy o‘rganish birinchi o‘rinda turgan. Shu bilan birgalikda, amerikalik tadqiqotchilar, xuddi mahalliy tadqiqotchilar singari, paremalarning tarkibiy va semiotik xususiyatlariga ham e’tibor qaratdilar.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Tilshunoslар frazemalar va turg‘un bog‘lanmalar (paremalar) munosabati masalasida turlicha fikrlar bildirishadi. Jumladan, V.V.Vinogradov maqol va matallarni frazeologik birliklar qatoriga kiritadi [5:83]. A.V.Kunin ham paremalarni frazeologizmlarning bir qismi deb ataydi va frazeologik birliklarning barqarorligini turli ko‘rinishlarga xosligida deb belgilaydi [10:381].

Rus terminologiyasining ko‘zga ko‘ringan namoyandasи, mashhur folklorist olim G.L.Permyakovning qarashlari bu borada, aniq va qiziqarli ekanligini ko‘rsatadi [11:26]. B.Jo‘rayeva doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek xalq maqollarini ekstralengistik birliklar yordamida shakllangan 8 ta guruhga ajratgan [8:53].

Paremiologiyaning fan sifatida shakllanishi o‘tgan asrning boshiga to‘g‘ri keladi. Paremiyalarning lingvokulturologik tahlili F.F.Farxutdinova [12:2] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Parema atamasi ostida tadqiqotchilar xalqning kelib chiqishi bilan bog‘liq holatda, birinchi navbatda, maqollarni tushunadilar. Ammo atamaning kengroq qamrovi ham mavjud. Masalan, G.S.Vorkachev [6:15-31] paremalarga nafaqat maqollar va turg‘un birikmalarini, balki topishmoqlar, matallar va aforizmlarni ham kiritadi.

O‘zbek tilshunosligida ham paremalarni tadqiq qilish borasida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, B.Jo‘rayeva tomonidan “O‘zbek xalq paremalarining sinonimik lug‘ati” tuzildi [1:6]. Muallif o‘zbek xalq paremalarini to‘plashga bag‘ishlangan dastlabki ish ekanligini alohida ta’kidlaydi. Kirish qismda maqolning matal hamda maqol-matal tipidagi paremalardan farqi tushuntirilib, maqol, matal va maqol-matal tipidagi paremalar bilan bog‘liq sinonimiya hodisasi haqida ham fikr yuritiladi. Lug‘at qismda esa, ikki parema qatnashadigan sinonimik uyadan qirq to‘rt parema qatnashadigan sinonimik uyagacha qamrab olingan.

Z.Xolmanova, G.Valiyeva, D.Muhammadiyevalar hammuallifligida 2022-yil “O‘zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi” monografiyasи nashrdan chiqdi [4:184]. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi paremalarning semantik, lingvokulturologik xususiyatlari ochib berish bilan birgalikda, o‘zbek xalq maqollari, matallari, o‘rnii bilan, turkiy tillar hamda boshqa genetik oilaga mansub tillardagi paremiyalar ham tahlil qilingan.

Y.Nuruvanining “O‘zbek xalq paremalarida kiyim va oziq-ovqat nomlarining etnolingistik tadqiqi” monografiyasida [2:112], Sh.Boyxanovning “Ingliz tili amaliy kursida talabalarning paremiologik kompetensiyasini rivojlantirish” [3:47] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ham paremalar yuzasidan salmoqli fikrlar bayon qilingan.

Paremalarни o‘rganish jarayonida maqol va matal munosabatiga alohida e’tibor qaratish lozim. Maqol va matalni farqlash, chegaralash borasida turli xil qarashlar mavjud. Lison hodisasi sifatidagi maqol va matalning mohiyati hanuzgacha

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

to‘la ochilmagan. Bu masalaga birinchilardan bo‘lib rus folklorshunos va tilshunoslari I.M.Snegirev, A.A.Potebnya, V.I.Dal, F.I.Buslayev, O.Shirokova, M.A.Ribnikova, V.P.Felisina, S.G.Gavrin, A.M.Babkin, A.A.Molotkov va boshqalardir e’tibor qaratganlar. Jumladan, V.Dal o‘zining mashhur “Пословицы русского народа” to‘plamining kirish qismida shunday yozgan edi: “Matal, xalqning ta’rificha, g‘uncha, maqol esa meva” [7:17]. Uning fikricha, maqol to‘liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo‘lsa, matal – ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora, u maqolning yarmidir.

M.A.Ribnikova ham matalga nutq parchasi, ibora, hukm elementi, maqolga esa tugal hukm, tugal fikr sifatida qaraydi. Latish paremiologik janrlarining ulkan tadqiqotchisi E.Y.Kokare maqol va matallarning o‘zaro farqlanuvchi jihatlariga alohida diqqat qilmay, ularni bir xil birlik sifatida tahlil qiladi [9:18]. Professor N.O.Sharakshinova maqol va matallarning o‘zaro keskin farqlanishiga qo‘shilmaydi [13:87]. Buryat maqollarining keyingi tadqiqotchilaridan biri maqol hamda matallarning mazmun va tuzilish jihatidan farqlanishini ko‘rsatib o‘tadi va ularni mustaqil janrlar sifatida o‘rganish kerakligini ta’kidlaydi.

Maqol-matal munosabati borasiga B.Jo‘rayeva “Maqol va matallarni ma’no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga ko‘ra bir-biridan farq qiladi [1:6]”, degan fikrni ilgari suradi. Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko‘chma ma’noga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo‘lmay, faqatgina to‘g‘ri ma’noda qo‘llanishida ko‘rinadi.

Maqol-matal tipidagi paremalar ham mavjud bo‘lib, ularda maqolning ham, matalning xususiyatlari aks etadi. Tilshunoslikdada “oraliq uchinchi” deb nomlanadigan atama bo‘lib, ikkita bir-biriga zid bo‘lgan, bir-birini inkor etadigan xususiyatning uchinchi bir birlikda bo‘lishi tushuniladi. Xuddi shunday holatni maqol va matal oralig‘ida ham ko‘rish mumkin. “Maqol va matal oralig‘ida keng ko‘lamda maqol-matal tipidagi ifodalar joylashgan bo‘lib, ular o‘zida maqollik va matallik xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday ifodalarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda bir qism so‘zlar o‘z ma’nosida ishlatsila, ikkinchi qismi ko‘chma ma’no ifodalaydi [8:17]”. Masalan: *Boy boyga boqar, Suv soyga oqar. || Hamsoya hamsoyadan ulgi olar, Qovun qovundan rang.* Bunda “Boy boyga boqar”, “Hamsoya hamsoyadan ulgi olar” birikmalari tarkibidagi so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, “Suv soyga oqar”, “Qovun qovundan rang” ifodalari tarkibidagi so‘zlar esa umumiyo ko‘chma ma’no ifodalaydi.

Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat oshirar. Ushbu maqolda bahor kelishi bilan tog‘lardagi qorlar erishi, daryolar suvi ko‘payib to‘lib toshib oqa

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

boshlashi o‘z ma’nosida qo‘llanilayotgan bo‘lsa, ikkinchi qism kengroq ko‘chma ma’no: “inson qancha ko‘p mehnat qilsa, halol yashab, kun kechirsa, el-yurtda o‘z obro‘-e’tiborga ega bo‘ladi” degan ma’no anglashiladi.

Kechki ovqat – zahar, Ovqat yegin sahar. Ushbu maqolning birinchi qismi ko‘chma ma’noda ifodalangan bo‘lib, kechkurun kam ovqat yeyish kerakligi, ko‘p tanovvul qilingan eng foydali mahsulotlardan tayyorlangan taom bo‘lsa ham, inson salomatligi uchun zarar ekanligi ta’kidlansa, maqolning ikkinchi qismida saharda yeyilgan har qanday taom inson sog‘ligi uchun foydali ekanligi, organizmda yaxshi hazm bo‘lib, inson uchun kerakli energiya hosil qiladi, degan denotativ ma’no anglashiladi.

Yomg‘irdan o‘t-o‘lan o‘sar, qo‘shiqdan – ko‘ngil. Ushbu maqolning birinchi qismi ham denotativ ma’noda qo‘llangan bo‘lib, yomg‘ir suvi yer unumdorligini oshirishga, hosil mo‘l-ko‘l bo‘lishga zamin yaratadi va natijada o‘t-o‘lanlar o‘sib, ekinlar yaxshi hosil beradi, degan mazmun anglashiladi. Ikkinchi qism esa, ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, har qanday dilga xush yoquvchi kuy-qo‘shiqdan ko‘ngil orom oladi, yaxshi kayfiyat baxsh etadi degan ma’no anglashiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqol, matal va iboralar – paremalar nutqqa tayyor holda kiritiladi. Maqollar nutqqa tayyor holda kiritilishi, o‘zganing nutqini aynan keltirish talabi bilan sodir bo‘ladigan, grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlaridir. Matallar esa grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, faqat o‘z ma’nosida – to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari hisoblanadi. Maqol, matal, maqol-matal tipidagi paremalarni aforizmlar bilan birga “hikmatlar” yoki “paremalar” nomi ostida birlashtirib o‘rganish o‘zini oqlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq paremalarining sinonimik lug‘ati. – Toshkent, 2023. – B.6.
2. Nuruva Y. O‘zbek xalq paremalarida kiyim va oziq-ovqat nomlarining etnolingistik tadqiqi. – Buxoro, 2022. – B.112.
3. Boyxanov Sh. Ingliz tili amaliy kursida talabalarning paremiologik kompetensiyasini rivojlantirish: Filol. fan. nomz. diss. ... avtoref. – Chirchiq, 2023. – B.47.
4. Xolmanova Z., Valiyeva G., Muhammadiyeva D.. O‘zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. – Toshkent: Mahalla va oila, 2022. – B.184.
5. Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII-XIX веков. – М., 1982. – С.83-84.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

6. Воркачев С.Г. Quisque suum: идея справедливости в научном дискурсе II Синтез: Философия. Право. Экономика. – 2009. – № 1(19), 2(20). – С.15-31.
7. Даль В.И. Пословицы русского народа. – Москва, 1957. – С.17.
8. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақолларининг шаклланиши масалалари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.53-93.
9. Кокаре Э.Я. Интернациональное и национальное в латышских пословицах и поговорках. – Рига, 1978. – С.18.
10. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: «Высшая школа». Дубна: Феникс, 1996. – С.381.
11. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – С.26.
12. Фархутдинова Ф.Ф. Концептуальный анализ паремических единиц // Материалы Международной конференции «Фразеологическая картина мира» / Сост. В.Т. Бондаренко, Г.В. Токарев: В 2-х ч. Ч 1. – Тула: Изд-во ТГПУ им Л.Н. Толстого, 2002
13. Шаракшинова Н.О. Бурятское народное поэтическое творчество. – Иркутск, 1975. – С.87.